



UO‘K: 1(091)+17+1(575)

XVIII-XIX ASR MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA AXLOQ TAMOYILLARI

MORAL PRINCIPLES IN THE LEGACY OF 18TH-19TH CENTURY THINKERS

ПРИНЦИПЫ НРАВСТВЕННОСТИ В НАСЛЕДИИ МЫСЛИТЕЛЕЙ XVIII–XIX ВЕКОВ

Turobov Yorqinjon Yoqub o‘g‘li

Renessans ta‘lim universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari tahlil etilgan. Xususan, IX-XII va XIV-XV asrlardagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy yuksalishi hamda XVIII-XIX asrlarda sodir bo‘lgan tanazzul omillari siyosat falsafasi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Maqolada Xoja Samandar Termiziy, So‘fi Olloyor, Mirzo Abdulqodir Bedil, Ahmad Donish, Ogahiy, Furqat, Zavqiy kabi mutafakkirlarning merosi tahlil qilinib, ularning rahbarlik axloqi, adolat va jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi g‘oyalari zamonaviy masalalarni anglashda muhim manba ekanligi ta‘kidlangan. Mutafakkirlarning asarlarida adolat, axloq, ilm va tafakkur birligi, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlik va insoniy yuksalish uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu ilmiy tahlil qadimiy merosning zamonaviy siyosiy-falsafiy tadqiqotlar uchun dolzarbligini yoritadi.

Abstract

This article analyzes the socio-political and ethical views of Eastern thinkers. In particular, it examines the socio-political rise of Turkestan during the 9th–12th and 14th–15th centuries, as well as the factors contributing to its decline in the 18th–19th centuries from the perspective of political philosophy. The intellectual legacy of prominent scholars such as Khoja Samandar Termizi, Sufi Allayar, Mirzo Abdulqadir Bedil, Ahmad Donish, Ogahiy, Furqat, and Zavqiy is explored, emphasizing their views on leadership ethics, justice, and the stability of society as valuable sources for understanding contemporary issues. The study highlights the significance of justice, morality, the unity of knowledge and thought, as well as the role of essential values in ensuring social harmony and human progress. This scholarly analysis underscores the relevance of this historical legacy for modern political and philosophical research.

Аннотация

В данной статье анализируются социально-политические и этические взгляды восточных мыслителей. В частности, исследуется социально-политический подъём Туркестана в IX–XII и XIV–XV веках, а также факторы упадка, произошедшего в XVIII–XIX веках, с точки зрения философии политики. Рассматривается интеллектуальное наследие таких мыслителей, как Ходжа Самандар Термези, Суфи Оллоюр, Мирзо Абдулкадыр Бедиль, Ахмад Дониш, Огахий, Фуркат, Завкий, подчёркивается значимость их идей о лидерской этике, справедливости и стабильности общества как важного источника для понимания современных проблем. В трудах этих мыслителей особое внимание уделено вопросам справедливости, морали, единства знаний и мышления, а также значимости ценностей, необходимых для социальной гармонии и человеческого прогресса. Данное научное исследование раскрывает актуальность древнего наследия для современных политико-философских исследований.

Kalit so‘zlar: axloq, siyosat, hukumat, din, adolat, fuqaroparvarlik, odillik.**Key words:** ethics, politics, government, religion, justice, civic-mindedness, fairness.**Ключевые слова:** мораль, политика, власть, религия, справедливость, гражданственность, честность.**KIRISH**

Xalqimizning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari tarixiga doir ma‘lumotlar, dalillar hamda tahlillar Sharq, xususan, Turkiston IX-XII, XIV-XV asrlarda kuchli ijtimoiy-siyosiy yuksalishni boshidan kechirganligini ko‘rsatadi. Biroq, shu qadar yuksak sivilizatsiyani boshdan kechirgan mintaqamiz va millatimiz XVIII-XIX asrlar mobaynida tanazzulga yuz tutgani va Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangani ijtimoiy fanlar, jumladan, siyosat falsafasi nuqtayi nazaridan o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardandir.

XVIII-XIX asrlar mobaynida Turkiston mintaqasida bir-biriga zid omillar, jarayonlar o‘rtasidagi nomutanosiblikning keskinlashganini hamda kuchayganligini kuzatish mumkin. Ularni tizimni tuzuvchi va buzuvchi jarayonlar deb nomlash mumkin. Jumladan, Amir Temur va temuriylar hukmronligidan so‘ng tinchlik, barqarorlik, fuqaroviy hamjihatlikka intilish, jamiyatni boshqarishda

taraqqiyotni ta'minlovchi qadriyatlar, davlatchilik tajribasi, Vatan shon-shuhrati uchun qayg'ura olish kabi tizimni barqarorlashtiruvchi jarayonlar birin-ketin barbod bo'lgan. Sekin-asta ular o'rnini vayron qiluvchi quyidagi omillar egalladi:

- 1) mahalliy xalq o'rtasidagi parokandalik;
- 2) qabilachilik va urug'chilik kayfiyatining kuchayishi bois yagona xalqning bir-biriga yovlashishi;
- 3) birodarkushlik mojarolari (o'zbek xonliklari, qolaversa, markaz hamda bekliklar o'rtasida ro'y bergan qonli to'qnashuvlar);
- 4) siyosiy, hududiy-madaniy yaxlitlikni saqlab qolishga qodir kuchlarning mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'lgani (Bobur va uning maslakdoshlari, Abdumalik To'ra va boshqalarning qismati) va hokozolar.[1]

Yuqorida qayd etilgan omillar Turkiston mintaqasining XVIII-XIX asrlardagi tanazzulini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu davrda mintaqada ijtimoiy-siyosiy tizimni barqarorlashtiruvchi asosiy tamoyillar izdan chiqib, mahalliy hokimiyatlar o'rtasida nizolar va parokandalikning kuchayishi siyosiy zaiflikni yanada oshirdi. O'zaro adovat va ichki bo'linishlar mintaqaning siyosiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini cheklab, uni tashqi kuchlarning bosqiniga nisbatan himoyasiz qoldirdi.

TADQIQOTNING USULLARI

Mamlakatimiz tarixidagi so'nggi 400-yil mobaynida yo'qotilgan ko'pgina qadriyatlarimiz oqibatlarini xalqimiz mentalitetida jiddiy asoratlar qoldirdi. So'z va ish birligi buzildi. Milliy birlikka, milliy vijdon va vataniy axloqqa da'vat etish borasida jiddiy amaliy harakatlar izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va hududiy birlashish bilan qanoat qilish, Vatan va millat manfaatlarini tor shaxsiy manfaatlariga almashtirib yuborish kabi noxush jarayonlar kuchaydi.[2] Hokimiyatga kelgan yangi, ammo taraqqiyot uchun yaroqsiz kuchlar – xonlar sulolalari xalq ehtiyojlari, fuqarolarning hayotiy manfaatlarini his etish va ifodalashga zaiflik qilganlar. Mahalliylik va mintaqaviy mojarolar girdobiga tushib qolgan mamlakat Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketgan. Shaxsiy va urug'chilik manfaatlarining ustuvor ahamiyat kasb etishi mamlakatda boshboshdoqlikni keltirib chiqardi. Siyosat falsafasi ilmi nuqtayi nazaridan baholaganda, mamlakatda tizim buzuvchi jarayonlar batamom ustun bo'lib qolgan. Bu davrda Turkiston xalqlari siyosiy tafakkuri, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayoti qanday jarayonlar ta'sirida kechganini o'rganishda o'sha zamonlarning bevosita shohidi bo'lgan olim-u fuzalolar merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. XVIII-XIX asr Turkiston mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari keng o'rganilgan va taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar sifatida qaralgan. Ushbu davrda yashagan Turkiston mutafakkirlari axloqiy qadriyatlarni jamiyatdagi barqarorlik va insoniy yuksalishning asosi deb bilishgan. Ularning fikrlarini o'rganish, nafaqat tarixiy, balki zamonaviy axloqiy masalalarni ham anglashga yordam beradi.

Xoja Samandar Termiziy XVIII-XIX asr Turkiston mutafakkirlari orasida alohida o'rinni egallagan. Uning axloqiy tamoyillarga oid qarashlari jamiyat barqarorligi va insoniy yuksalish uchun muhim bo'lgan qadriyatlarni targ'ib qilgan. Xoja Samandar Termiziy axloqiy fazilatlarini faqat shaxsiy hayot doirasida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mezon sifatida ko'rgan. Uning hayoti va asarlari bugungi zamonaviy axloqiy muammolarni anglash va ularga yechim topishda ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mutafakkirning merosi zamonlar osha o'z dolzarbligini yo'qotmaganini tasdiqlaydi.

Alloma "Dastur al-muluk" asarida rahbar uchun shart bo'lgan bir qator xususiyatlar haqida fikr yuritadi. Har bir xususiyatni alohida fasl-bobda bayon qilib, shu fasldagi "hikmat"larda o'sha xususiyatning mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Termiziy adolatni har qanday rahbarlikning birinchi sharti deb biladi va uni shunday sharhlaydi. Agar amaldor (jumladan, hukmdor) shaxs:

- fuqaroni azob-uqubatlardan asrab, tinchligi va osoyishtaligini ta'minlasa;
- kimdandir nohaq zulm ko'rib, adolat istab amaldor oldiga kelib, undan ham ozor ko'rgan odamlardan iborat dushmanlari bo'lmasa;
- mansabini suiiste'mol qilgan, mamlakat va xalq mulki hisobiga boyishga intilayotgan manfaatparastlardan bo'lmasa va o'shandaylarga barham bersa;
- beshafqat va zulmkor kishilarni jilovlay olsa, o'rta va quyi tabaqa vakillarida ham o'ziga ishonch-umid tug'dira olsa;
- rahbarlik siyosati nizomiga ega bo'lsa;
- mamlakat va xalq uchun zarur narsalarni yaratish va tashkil etish yo'lidan borsa;

FALSAFA

- fuqaroga va mamlakat obodligiga g'amxo'rlik ko'rsatsa, yaxshi odamlar uni do'st deb bilsa va shu do'stlik uning tirikchiligiga aylansa;
- xalqni mehnat (urushlar, ko'chib yurishlar, bosqinchi to'dalar xuruji kabilar) dan xalos etib tinchlik ustuvor bo'lgan mumtoz zamon yarata olsa;
- mamlakat farovonligi uchun o'z rohatidan voz kecha olsa;
- arz-dodlarni batafsil eshitib, adolatli chora ko'ra oladigan mulozimlar (rahbariyat)ga ega bo'lsa;
- fuqaroparvarlik qoidalariga mukammal amal qilsa va shu tufayli hech kimning eshigi zulm-advovat bilan ochilmasa;
- mamlakat hayotida yuz berayotgan ishlardan hamisha xabardor bo'lsa, hokimlar, mansab-amaldorlar tomonidan yo'l qo'yiladigan nobop, ko'ngilsiz voqealardan o'zi tez-tez qabul qilib turadigan oddiy odamlar orqali xabar olib tursa bunday rahbarni adolatli rahbar deyish mumkin.[3]

Termiziyning fikricha, siyosat bu nozik ish bo'lib, rahbarni doimo jadal hamda g'ayrat-shijoat va jasorat bilan harakat qilishga undaydi. Adolat rahbarda kuchli bo'lishi mumkin. Ammo odillik qat'iylik bilan qaror topadi. Adolatli bo'la turib, qat'iy bo'lmagan rahbar adolatni keng miqyosda joriy eta olmaydi. Qat'iysiz amaldor ichki ziddiyatlarni bartaraf qila olmaganidek, tashqi qarshiliklarga ham dosh bera olmaydi. Fuqarolarning tinchligi, iqtisodiy-ijtimoiy farovonligi qat'iysizlik tufayli ham ko'p buziladi. Qat'iyatli rahbar adolatli rahbardan ham ko'ra ko'proq rahbarlik qila olishi mumkin. Shuningdek, rahbar qay vaqtda qat'iyat ko'rsatish kerakligini ham bilish lozim. Masalan, jang paytida sulh tuzishga harakat qilgan, sulh tuzish zarur bo'lganda jang qilishni afzal ko'rgan rahbarni qat'iyatli ham, aqlli ham deb bo'lmaydi. Chunki, har ikki holatda ham u o'ziga nisbatan qarshiliklarni kuchaytirib yuborib, zarar keltiradi.[4] Alloma "Dastur ul-muluk"da barcha davlat xizmatchilari vazifalarining axloqiy tasniflari shakllantirilgan. Eng muhimi bu boradagi ilmiy vorisiylik an'ana sifatida rivojlantirib kelingan. Xulosa qilish mumkinki, Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros davlatchilik madaniyatimizning ulkan zaxiraga ega ekanligidan dalolat beradi. Ammo, bugungi kunda ushbu merosni siyosiy falsafa fani nuqtayi nazaridan o'rganish, ilmiy amaliyotga olib chiqish biroz orqada qolmoqda.

NATIJALAR

So'fi Olloyor Turkiston mutafakkirlaridan biri bo'lib, uning asarlarida axloqiy qarashlar chuqur tahlil etilgan va o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. U o'zining "Maslak ul-muttaqiyyn"[5] asarida insonning axloqiy kamolotini Allohga yaqinlashishning asosiy yo'li sifatida talqin qiladi. So'fi Olloyor axloqni nafaqat shaxsiy yuksalish mezonini, balki jamiyatni tartibga soluvchi muhim omil sifatida qaragan. Uning asarlarida sabr, halollik, adolat, qanoat va kamtarlik kabi axloqiy qadriyatlar alohida o'rin egallaydi. So'fi Olloyor ayniqsa, inson qalbini poklash va nafsni tarbiyalashni axloqiy kamolotning markaziy jihati sifatida ko'rsatadi. Mutafakkirning fikricha, odamlar o'z hayotida axloqiy tamoyillarga rioya qilsa, jamiyatda barqarorlik va tinchlik qaror topadi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan So'fi Olloyor asarlarini o'rganish, zamonaviy axloqiy muammolarning yechimini izlashda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki uning asarlaridagi axloqiy qarashlar nafaqat tarixiy meros sifatida, balki insoniy munosabatlarning asosiy qoidalarini tushunishda ham muhim manba hisoblanadi.

Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy asarlari O'rta Osiyo va Hindistonning bir qator xalqlarining ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida alohida o'rin tutadi. Bedil falsafadagi yangi yo'nalishning asoschisi hisoblanadi. Bu falsafa Hind va yunon falsafasining eng yuqori sintezi, o'z davrining qadimiy va zamonaviy falsafasining sintezidir. Bedil falsafasi universaldir, chunki unda u subyektiv va obyektiv haqiqatni teng ko'rib chiqishga harakat qildi. Uning falsafasi diniy fanatizmga qarshi kurashish nuqtayi nazaridan mustaqildir. Turli irq va e'tiqodga mansub odamlar o'rtasida bag'rikenglik, o'zaro hurmat va do'stlik munosabatlarini o'rnatishga intilib, Bedil juda og'ir harbiy, siyosiy, madaniy va diniy sharoitlarda insoniyatning o'ziga xosligi muammosini ko'taradi.

Bedil, xuddi Forobiy singari, aql, axloq, bilim birligiga alohida ahamiyat beradi. Chunki inson aql bilan bilimga ega bo'lmasa, tafakkur ong-shuurini rivojlantirmasa, u yaxshilikning qadriga yetmaydi. Zero, jamiyat ilm va tafakkur bilan qudratlidir. Mirzo Bedil yaxshilik, axloqiy poklik haqida fikr bildirganida, bu tushunchalarning aql-idrok, ilm-ma'rifat bilan bir butun holda olib qarashga harakat qiladi:

*Kishi tabiatini fosh etsa idrok,
Faqat yaxshilikka etar ishtirok.
Ilmdan bebahra qoladi ta'bi,*

Badfe'lidan kechib bo'lolmasa pok. [6]

Bedilning jamiyat haqidagi ta'limoti adolatli suveren g'oyasiga asoslanadi va bu jamiyatni tashkil etish yo'llari fan va bilimning ma'nosini to'g'ri tushunish bilan bog'liq. Davlat donishmandlari, faylasuflar, savdo hunarmandchiligi vakillari, dehqonlar va hunarmandlardan iborat bo'lishi lozim. Davlatning asosi adolatli suverening markazlashgan boshqaruvi va dini, millati va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, barcha odamlarning teng maqomlidir,[7] deydi. Bedil adolatni nafaqat siyosiy-huquqiy jihatdan, balki uning ijtimoiy-axloqiy jihatdan ham o'ziga xosligini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Mirzo Bedil adolatni ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida tahlil etganda, bu tushunchaga boshqacha yondashadi. Sharq mutafakkiri Mirzo Bedil adolatni asoslashda ko'proq lirik-ruhiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yondashgan. Zero, sharqona jamiyatlarda azaldan adolat tushunchasiga hamohang tarzda "haq", "me'yor", "haqiqat", "burch" tushunchalari ham qadrlanib kelingan. Shuningdek, jamoa manfaati, oiladagi tartib – intizom, e'tiqod va ma'naviylik yuqori baholangan.

MUHOKAMA

Komil insonda eng avvalo, yuksak axloq bo'lishi kerakligini, uning bu hayotdagi vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasm-u rusumlarni yo'qotib, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni joriy etishdan iboratligini o'z g'azallarida yorqin ifoda etgan mutafakkirlardan yana biri Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiydir. Inson komil inson darajasiga yetishi uchun ham o'zini anglab yetishi kerak. Zero o'zini anglamagan inson bu dunyodagi hech bir voqelikni anglamaydi. Muhammad Rizo Ogahiy insoniyat, undagi go'zal va oliyjanob axloqiy fazilatlarni ulug'lagan, ularning aksi bo'lgan g'ayriinsoniy illatlarni qoralagan. Keskin tanqidga, jamiyatda ildiz otgan nohaqlik, yulg'ichlik, mansabparastlik, g'irromlik va nodonlikni fosh etishga bag'ishlangan asarlarida haqiqiy gumanist sifatida namoyon bo'ladi, chunki ular nazarida insonga xizmat qilmagan tuzum, davlat, boylik muvaqqat, o'tkinchidir. O'tkinchi narsalarga mehr qo'yish, sig'inish jamiyatni ma'naviy-axloqiy tanazzulga yetaklaydi.

Muhammad Rizo Ogahiy xalqparvar mutafakkir sifatida o'z asarlarida hukmdorlarning adolatli, xalq g'amxo'ri va odil bo'lishini targ'ib qilgan. Uning "Qasidai nasihat" asari hukmdor Feruzga bag'ishlangan bo'lib, unda Ogahiy davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini adolat, ma'rifat va xalqparvarlik nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Asarda u saltanatni rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlarni sanab o'tadi: himmat, shijoat, adolat, siyosat, jalodat (jasorat), g'ayrat, saxovat, iffat, halm, hayo, va'daga vafo, muruvvat va boshqa axloqiy qadriyatlar. Shu bilan birga, davlatning tanazzuliga olib keluvchi illatlar – g'aflet, sharkat, jahl, shahvatga mukkasidan ketish, zulm, bid'at, mulk boshqaruvidan bexabar bo'lish kabi yomon odatlarni keskin tanqid qiladi.[8] Ogahiy ijtimoiy tuzumning kamchiliklarini tanqidiy yondashuvda tasvirlagan bo'lsa-da, tub o'zgarishlarni emas, balki jamiyat a'zolarining, xususan, shoh va amaldorlarning ma'naviy-axloqiy yuksalishini targ'ib qilgan. U adolatli, halol va ma'rifatli boshqaruvni insoniyatning tarixiy orzusi sifatida tasvirlab, bu orqali odilshoh obrazini shakllantirishga harakat qilgan. Bu tamoyillar uning quyidagi satrlarida yaqqol namoyon bo'ladi:

*"G'am ko'hna shomi, Ogahiy, tong yo'q jahondin borsakim,
Sulton odil asrining har bir kuni Navro'z erur."* [9]

Ogahiy hukmdorning adolatli bo'lishini xalqning tinchligi va farovonligi uchun zarur shart sifatida ko'rsatadi. Adolatli hukmdorning har bir kuni xalq uchun yangilanish va farovonlik bayramiga aylanadi. Bu orqali Ogahiy Navoiy an'analarini davom ettirib, adolatli jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini rivojlantiradi. U davlatni boshqarishdagi kamchiliklarni bartaraf etishning eng muhim omili sifatida ma'rifat va axloqni ko'rsatib, ma'naviy kamolotga chaqiradi.

Berdaqning fikricha, inson uchun eng oliy baxt-bu o'z Vatanga, xalqiga halol va beg'araz xizmat qilishdir. Berdaq xalqqa xizmat qilishga chaqirar ekan, u dastavval to'g'rilik, haqiqatgo'ylik, adolat, inson qadr-qimmatiga hurmat bilan qarash, ezilgan va huquqsizlarni himoya qilishni ko'zda tutadi. Bunday xislatlarga ega bo'lmagan kishini inson deb bo'lmaydi. Berdaq o'z asarlarida xalq ommasini og'ir ahvolini yoritish bilan cheklanib qolmay, balki tevarak-atrofidagi ijtimoiy adolatsizliklar haqida umumlashtiruvchi sotsial xulosalar chiqarish darajasiga ko'tarila oldi. Berdaqning aytishicha xalq ommasining fojiali ahvolda qolganining sababi xon va uning amaldorlarining berahmliigi, xalq taqdiriga befarq, beparvo qarashligidadir. Berdaq jabr-zulmga asoslangan ijtimoiy tuzum yo'q bo'lishiga, ozodlik va adolat o'rnatilishiga ishonch bildiradi. Lekin u adolat o'z-o'zidan kelmasligini, buning uchun harakat zarurligini anglatgandi. Berdaq o'z ijodi bilan xalq ommasini adolat uchun kurashga ilhomlantirdi.

FALSAFA

Ahmad Donish esa o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho-hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab-yashnashiga yo'l ochib bersa - xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi.[10]

Ma'rifatparvarning qarashlariga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi, mamlakat farovonligi birinchi navbatda podshohning shaxsiy fazilatlar va siyosatiga bog'liq. Shunga asoslanib, u o'z g'oyalari rivojlanishining birinchi bosqichida Amir va amirlikni rad etmaydi, balki taklif qilgan islohotlari yordamida Amir va uning amaldorlari tomonidan mamlakatni boshqarishni takomillashtirish va yuqori darajaga ko'tarishga - xalq bo'lish va mamlakatni obodonlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun Ahmad Donish "Amir qanday bo'lishi kerak?", degan savolga quyidagi javobni beradi: "Amir adolatli, halol, ma'rifatli, aqlli bo'lishi kerak, u shariat qonunlarini buzmasligi va amirlik saroyiga ba'zi ehtiyojlar va shikoyatlar uchun kelgan fuqarolarini zudlik bilan qabul qilishi, hukmdor haqidagi fikrini chuqurlashtirishi va rivojlantirishi kerak. Eng qiyin vaziyatlarda "Shoh adolatli va kuchli bo'lishi kerak"[11] deb ta'kidlaydi. Agar podshoh zolim va zaif bo'lsa, qo'shnilar uning mamlakatini egallab olishni va uning mol-mulkini oyoq osti qilishni xohlashadi.

Ahmad Donishning siyosiy qarashlari Turkiston va Buxoro amirligining keyingi mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, uning xalq azoblariga xayrixohlik bildirish, dunyoviy bilimlarni targ'ib qilish, reaksiyon musulmon ruhoniylari faoliyatini keskin tanqid qilish illatlarini fosh qilish, amirlikni isloh qilish istagi, maslahat organini (majlisni) yaratish, pensiya jamg'armasini yaratish, vazirliklarni, shu jumladan umumiy ishlar vazirligi, harbiy ishlar vazirligi, ta'lim vazirligi va boshqalarni yaratish, konstitutsiyaviy tamoyilga rioya qilish, ijtimoiy adolatga rioya qilish, mamlakat farovonligi va uni takomillashtirish yo'llari va usullari ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari Sattorxon va Furqat asarlarida ham ifodalangan. Ular mamlakat qoloqligining asosiy sababi feodal-xonlik ijtimoiy tartiblarida deb bilib, uni tanqid ostiga oldilar. Sattorxon xonlik tuzumini o'zboshimchalikda, qonunsizlik va poraxo'rlikda, mamlakat farovonligi, ilm-fan rivoji haqida hech qanday g'amxo'rlik yo'qligida aybladi. Uning ko'rsatishicha, mamlakat hamma jihatdan kulgili darajada qoloq bo'lsa-da, xon, bek va hokimlar o'z maishatini ko'zlagan. Xonning bek va hokimlarga munosabati, ularning ishiga emas, olib keladigan sovg'asiga qarab belgilanardi, maktab, ilm-fan, o'qish-o'qitish ustidan deyarli nazorat yo'q edi. Shu sababdan, deb yozadi Sattorxon, mamlakat qoloqlikda qoldi.[12]

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi deb tushunadi. Xonlar, deydi u, ilm-fan, xalq farovonligi, mamlakat rivoji haqida g'amxo'rlik qilish o'rniga o'zlarining rohati va maishatlari bilan band bo'ldilar. Furqat xon va beklarning o'zaro urush va nizolarini qattiq qoralaydi, bu urushlar xalqqa og'ir kulfat ekanini, mamlakatni vayronlikka olib kelganligini ta'kidlaydi. Furqat feodal xonlik tartiblarini fosh qilib, o'z vatandoshlariga ilm va ma'rifatning, umuminsoniy madaniyat yutuqlariga yondashish zarurligini tushuntirishga harakat qildi.

Ma'rifatli kishilar idora qilganlarida edi, ahvol bu darajada mushkul bo'lmasdi deb fikr bildirgan Ubaydullo Solih o'g'li Zavqiy uchun xonlik hokimiyatini tugatilishi mamlakatni taraqqiyot yo'liga kirishni muhim omillaridan biri bo'lib ko'ringandi. Bu masalada u o'z do'stlari Furqat va Muqimiy fikrlariga qo'shilishardi. Biroq bu Zavqiyga, Muqimiy kabi chor mustamlakachilik tuzumini tanqid qilishga xalaqit bermas edi. U hayotiy tajribasida rus podshosi va uning chinovniklari feodal zolimlaridan farq qilmasligiga iqror bo'lardi.

O'rganilayotgan davrda (XVIII-XIX asrlar) ijtimoiy hayotidagi mafkuraviy kurash badiiy adabiyotda ham o'z aksini topdi. Bu davrda yashagan adabiyot ahillari o'z dunyoqarashi, estetik uslublari hayot voqealariga munosabati ijodiy uslublarga ko'ra ikki adabiy oqimni tashkil etar edilar. Bu davrlar ilg'or adabiy oqimning ijobiy tamoyillari Turdi Farog'iy va Mashrab, Nishotiy, Mujrum, Gulxaniy va Maxmur, Munis va Ogahiy va shu kabi boshqa qalam ahillarining ijodiyotida o'zining yorqin ifodasini topdi. Feodal istibdodga qarshi xalq noroziligining o'sib borishi, mehtatkash ommaning osoyishta va baxtli farovon hayot haqidagi orzu-intilishlari, feodal, tarqoqligiga va diniy-xurofot ixtiloflariga qaramay, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik, totuvlik munosabatlarining o'sib

mustahkamlaninshi obodonchilik ilm-ma'rifat ravnaqi uchun kurash tamoyili, xullas, ijtimoiy madaniy hayotdagi barcha ijobiy yo'nalishlar bu shoir va yozuvchilar ijodining taraqqiyoti uchun g'oyaviy asos bo'ldi. Bu davr adabiy hayotining muhim jihatlaridan biri ayollar ichidan Nodira, Uvaysiy kabi istedodli shoiralarning etishuvidir. [13]

XULOSA

Yuqorida bayon qilingan tahlillar va tamoyillar Turkiston mutafakkirlarining XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotga bo'lgan yondashuvlarini chuqurroq anglash va ular o'z davri uchun qanchalik dolzarb bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur davrda mutafakkirlarning asosiy e'tibori nafaqat davlat va jamiyat boshqaruviga oid masalalarga, balki insonning ma'naviy va axloqiy taraqqiyotiga ham qaratilgan. Ushbu qadriyatlar hozirgi davr uchun ham o'zining muhimligini saqlab qolgan bo'lib, ular quyidagi asosiy yo'nalishlarda zamonaviy falsafiy va siyosiy qarashlar bilan uyg'unlashishi lozim:

- **Adolat prinsipining barqarorligi:** Turkiston mutafakkirlari adolatni jamiyatning eng asosiy tamoyillaridan biri deb bilgan va uni boshqaruv tizimida ham, insonlar o'rtasidagi munosabatlarda ham ustuvor qadriyat sifatida targ'ib qilgan. Adolat tamoyili bugungi kun siyosatida inson huquqlari va qonun ustuvorligi bilan uyg'unlashib, davlat boshqaruvi va jamoatchilik hayotining barcha sohalarida samarali qo'llanilishi kerak.

- **Halollik va rostgo'ylikning ijtimoiy ishonchni mustahkamlashdagi roli:** Ushbu tamoyil nafaqat shaxsiy fazilat sifatida, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning asosi sifatida ham ko'rilishi lozim. Bugungi kunda davlat xizmatchilari, rahbarlar va jamoatchilik vakillari uchun halollik va rostgo'ylik me'yorlarini targ'ib qilish korrupsiyaga qarshi kurash va jamiyat ishonchini oshirish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

- **Mehr-oqibat va ijtimoiy birdamlik:** Turkiston mutafakkirlarining mehr-oqibat tamoyili zamonaviy jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu tamoyil fuqarolar o'rtasidagi hamjihatlikni kuchaytirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda bu tamoyilga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

- **O'zini tahlil qilish va shaxsiy taraqqiyot:** O'zini tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish tamoyili bugungi kunning shaxsiy va professional rivojlanish bo'yicha muhim asosi bo'lib, jamiyatning har bir a'zosi o'z ustida ishlashi orqali jamiyatni yaxshilashga hissa qo'shishi mumkin. Ushbu tamoyil nafaqat shaxsiy kamolot uchun, balki davlat xizmatida ishlovchi kadrlarning sifatini oshirish uchun ham dolzarb hisoblanadi.

- **Diniy va axloqiy qadriyatlarning universalligi:** Turkiston mutafakkirlarining diniy axloqiy qarashlari bugungi kunda ham insonlar o'rtasida hurmat, sabr-toqat, xushmuomalalik kabi munosabatlarni shakllantirishda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy falsafa va siyosiy tizim bilan uyg'unlashtirish, ayniqsa, globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiston mutafakkirlarining tamoyillari faqat tarixiy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda ham dolzarbligini namoyon etmoqda. Ularning axloqiy qarashlarini hozirgi kun davlat boshqaruvi, jamiyat barqarorligi va milliy birlikni ta'minlashda strategik tamoyillar sifatida qo'llash mumkin. Shuningdek, bu qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish orqali ularni yuqori ma'naviyatli va yuksak axloqli fuqarolar etib tarbiyalash, shuningdek, mustaqil davlatimizning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratish mumkin. Bu esa milliy davlatchiligimizni yuksaltirish va uni milliy meros negizida yanada boyitish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik.O'qituvchi – T.:2008. 85-bet.
2. X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik.O'qituvchi. T.2008. 86-bet.
3. Термизий Хожа Самандар. Дастур ул-мулк. -Т.: Фафур Фулом нашриёти. 1997. 62-66 бетлар.
4. Термизий Хожа Самандар. Дастур ул-мулк. -Т.: Фафур Фулом нашриёти. 1997. 67-71 бетлар.
5. Қ. Ҳафизхўжа ўғли таржимаси. Т. Шарқ. 2020. 380 б.
6. Мирзо Бедил. Куллиёт. Ирфон.Бомбей, 1852. 38 б
7. Муминов И М. Философскийе взгляды Мирзы Бедиля.- Ташкент 1957. С-110.
8. Мухаммад Ризо Мироб Эрниеъбек ўғли Огаҳий Асарлар. II жилд. Нашрга тайёрловчи: Фулом Карим, муҳаррир: Субутой Долимов. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. Б.375.

FALSAFA

9. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнӣзбек ўгли Оғаҳий Асарлар. II жилд. Нашрга тайёрловчи: Ғулом Карим, муҳаррир: Субутой Долимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. Б.175.
10. Ахмад Дониш, Наводир ул-вақое', - Душанбе: Ирфон, 1988, -Кит,1, - 287 с.
11. Ахмад Дониш. Рисола дар назми тамаддун ва та'овун, - Душанбе, 1972, - 146 с.
12. Олим Усмон, Ўзбекистонда рус тилининг илк тарғиботчилари, -Т. 1962.
13. Музаффар Хайруллайев, Даврон Шораҳмедов. Маданият ва мерос. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.-Тошкент-1973. 108-109 бетлар.